



*hokimligi
maksiabgacha va maktab ta'lifi
boshqarmasi*

*maksiabgacha va
maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi
—umumi o'rta ta'lim maktabi
o'zbek tili fani o'qituvchisi*

*ning
2023-2024-o'quv yilida
10-11-sinflar bo'sh o'zlashtiruvchi
o'quvchilar uchun o'zbek tili fanidan
“O'zbek tilini o'rganamiz” nomli*

**TO'GARAK
HUJJATLARI**

To‘garak a‘zolari haqida ma’lumot

Nº	Familiya ismi va sharifi	Tug‘ilgan sanasi	Sinfি	Manzili (to‘liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							
15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O’tkazilgan xona _____

“_____” To ‘garak mashg’ulotlar o’tkazilish sanalari To ‘garak rahbari _____

To 'garak rahbari _____

“

_” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

To‘garak rahbari

“TASDIQLAYMAN”

MMIBDO‘

2023-2024-o‘quv yili bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun o‘zbek tili fanidan

“O‘zbek tilini o‘rganamiz” nomli to‘garagining

ISH REJASI

Nº	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Mashg‘ulot o‘tkazish muddati	Mashg‘ulot o‘tkazilgan sana
1	O‘zbekiston – jannatmakon o‘lka	1		
2	Oilam tayanchim, faxrim	1		
3	Oilam tayanchim, faxrim	1		
4	O‘zbekiston yoshlari	1		
5	O‘zbekiston yoshlari	1		
6	Do‘sralrim va qiziqishlarim	1		
7	Kitoblar dunyosi	1		
8	Kitoblar dunyosi	1		
9	O‘zbekiston olimlari	1		
10	Iqtidor va mehnat	1		
11	Iqtidor va mehnat	1		
12	Men yoqtirgan gazeta	1		
13	Qiziqarli ko‘rsatuylar	1		
14	Qiziqarli ko‘rsatuylar	1		
15	Tabiat va ekologiya	1		
16	Tabiat va ekologiya	1		
17	San’at va madaniyat	1		
18	San’at va madaniyat	1		
19	Yaxshi fazilat – inson ko‘rki	1		
20	Yaxshi fazilat – inson ko‘rki	1		
21	Mehnat – kelajak poydevori	1		
22	Mehnat – kelajak poydevori	1		
23	Milliy liboslar	1		
24	Milliy liboslar	1		
25	Dunyo taomlari	1		
26	Dunyo taomlari	1		
27	O‘zbekiston havo yo‘llari	1		
28	O‘zbekiston temir yo‘llari	1		
29	Pirimqul Qodirov «Yulduzli tunlar» romanidan parcha	1		
30	Pirimqul Qodirov «Yulduzli tunlar» romanidan parcha	1		
31	Chingiz Aytmatov .Qiyomat (romanidan parcha)	1		
32	Chingiz Aytmatov .Qiyomat (romanidan parcha)	1		
33	Abdulla Qahhor. Ming bir jon (hikoya)	1		
34	Saida Zunnova she’rlari	1		

To‘garak rahbari: _____

Mavzu: O‘zbekiston – jannatmakon o‘lka

Mashg‘ulotning maqsadi: O‘quvchilarning o‘zbek tilidagi orfoepik va orfografik me’yorlari haqidagi bilimlarini takrorlash. Kundalik turmushda bu qoidalarga rioya qilishni shakllantirish. Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish)ni shakllantirish.

2. Vatanni sevish, vatanparvarlik, vatanga sadoqat tushunchalarini mustahkamlash. Vatan taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishga chaqirish.davlat ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish; farzandlik va o‘quvchilik, fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish; xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash.

3.O‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish.Mustaqil ishlash ko‘nikmasini o‘stirish. Mavjud axborot manbalaridan foydalanib (internet, telefon, kompyuter, elektron pochta) ma’lumot almashish; Mashg‘ulotning turi:Mustahkomlovchi

Mashg‘ulotning usuli:

Mashg‘ulotning jihози: Mashg‘ulotlik,tarqatmalar, rasmlar, multimedya,...

Mashg‘ulotning borishi: A) Tashkiliy qism.

Salomlashish,davomatni aniqlash,o‘quvchilarni Mashg‘ulotga tayyorlash.

“Kun yangiligi” rukni asosida suhbat

B) O‘tilganlarni mustahkamlash.

Uy vazifasi so‘rab baholanadi. O‘qilgan badiiy asarlar tahlili qilinadi.

S) Yangi mavzu.

2-topshiriq. Matnni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini tushuntiring.

Vatan ona kabi azizdir. Shuning uchun ham uni – ona Vatan deymiz. Inson *o‘z vatanida kamol topadi*, qadrlanadi, baxt-saodatga erishadi.

Vatanni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir.

Mustaqillik tufayli *xalqimizning asriy orzulari* amalga oshdi. Yurtimiz O‘zbekiston butun dunyoga tanildi. Turli mamlakatlar bilan barcha sohalarda ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar o‘rnatildi. O‘zbekiston oltin, mis, neft, gaz kabi foydali qazilmalari va shirin mevalari, paxta ipaklari bilan jahon bozorida o‘z o‘rnini topdi.

Qadimiy va navqiron shaharlarni ko‘rgani kelgan sayyoohlар *jannatmakon o‘lkamizda xalqimizning mehmondo‘stligidan* bahramand bo‘lmoqdalar.

O‘zbek xalqi *vatan qadrini* hamisha yuksak tutgan. Vatanni xuddi ota-onani sevgan kabi sevish, uning tinchligi, taraqqiyoti uchun kurashish kerak. Shu bois Jannatmakon o‘lkamizning kelajagi sizning qo‘lingizda. Vatanni har jihatdan yuksaltirishingiz, *ko‘z qorachig‘iday avaylab, asrashingiz kerak.*

Talaffuz jarayonida so‘z tarkibidagi tovushlar turli o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Bu fonetik **tovush o‘zgarishlari** deb atalib, ularga tovush tushishi, tovush ortishi, tovush almas hinishi hodisalari kiradi.

Masalan: singil + im = singlim (2-bo‘g‘indagi *i* unlisi tushgan) o‘rtoq + im = o‘rtog‘im (*q* undoshi *g‘* ga almashyapti) xursand – xursan (*d* undoshi tushyapti) u + ga = unga (*n* undoshi orttirilyapti) bilak + ga = bilakka (*g* tovushi *k* ga almashyapti) chiroq + ga = chiroqqa (*g* tovushi *q* ga almashyapti)

1-mashq. Berilgan so‘zlarga **-ga, -ka, -qa** qo‘shimchalaridan mosini qo‘shing, so‘ng ushbu so‘zlarning qanday aytishli va yozilishini tushuntiring.

Bog‘, chiroq, etak, chek, o‘rtoq, barg, qirq, soliq, kiyik, chelak, kurak, quloq.

2-mashq. Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga mos qo‘shimchalarni qo‘yib yozing. Qanday tovush o‘zgarishi yuz bergenini ayting.

1. U otgan koptok chiroq... (-qa, -ga) tegdi. 2. Sayohatchilar qaynar buloq... (-qa, -ga) borishdi. 3. Sardorning dadasi bilak... (-ga, -ka) taqiladigan soat olib berdi. 4. Sardor juda xursan... (-d, -t) bo‘ldi. 5. U o‘rto...lariga (-q, -g‘) soatini ko‘rsatdi.

6. Sing...lim mакtabda a’lo baholarga o‘qiydi.

3-mashq. Matnni nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib yozing.

Men ... xalqining farzandiman. Mening xalqim ... va ... biladi. O‘z o‘g‘il-qizlarini ... bilan tarbiya qiladi. Mening xalqim ... , ... yaxshi ko‘radi. Ona o‘z ... uchun parvona bo‘ladi, ota o‘z bolalarini doim o‘z ... olib yuradi. Mening xalqim ..., ... qadrini biladi (*Hamid Olimjon*). **Foydalanish uchun so‘zlar:** o‘zbek, or, nomusni, nomus va hayo, birlik, ahillikni, hamjixatlikni, farzandlari, qanoti ostiga, do‘stlik, birodarlikning.

D) Mustahkamlash. 3-topshiriq. She’rni ifodali o‘qing va mazmunini tushuntiring.

Vatan faxri

Osmonlarda parvoz etgan sor burgut

Qaytib qo‘nar o‘zi uchgan tog‘iga

Alp yigitlar, Barchin qizlar el-u yurt

Nomin yoyer dunyoning har yog‘iga

Ruhi sog‘lom, fikri teran, jur’atl

Farzandi bor el ko‘kragi tog‘ bo‘lur. O‘g‘lonlari sog‘lom vatan
qudratli,

Qudratli yurt farzandlari sog‘ bo‘lur

Sharaflaydi Vatanini har qachon

Mard yurtboshi, oqil baxshi, chin o‘g‘lon

Xizmatingda asl o‘g‘il – qizlaring,

Yashna, yuksal O‘zbekiston – onajon.

Ko‘rkam qizlar, bobur, botir yigitlar

Vatan faxri, millat yoqqan chirog‘i

Yangra, diyor madhi jahon elida,

Porla, g‘olib vatanimning bayrog‘i!



Lug‘at burgut – опёл

dunyo – вселенная, земной

шар **jur’at** – смелость,

решимость

vatan faxri – гордость отечества

porlamoq – блестеть, сиять

qudratli – мощный

F) Baholash.

Uyga vazifa. She’rni yod oling



Sana “___” 20__-yil. Sinflar: ___ To ‘garak rahbari: _____

Mavzu: Oilam tayanchim, faxrim.

Mashg‘ulotning maqsadi: 1. O‘quvchilarga o‘zbek tilida so‘z tarkibi va qo‘sishmchalarning asosga qo‘shilish tartibi haqida bilim berish. Kundalik tur mushda bu qoidalarga rioya qilishni shakllantirish. Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish)ni shakllantirish. Badiiy asarni tahlil qilishni o‘rgatish.

2. Oila – muqaddas dargoh ekanligini uqtirish. Oilaning umumiy va xususiy mulkini asrab – avaylashga o‘rgatish. yurish-turishda madaniy me’yorlarga jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariiga rioya qilish.

farzandlik va o‘quvchilik, fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish; xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash.

3. O‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini ,o‘z fikrini turli vaziyatlarda erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.Mustaqil ishlash ko‘nikmasini o‘stirish. Mayjud axborot manbalaridan foydalanib (internet, telefon, kompyuter, elektron pochta) ma’lumot almashish; badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish;

Mashg‘ulotning turi: yangi bilim beruvchi

Mashg‘ulotning usuli:

Mashg‘ulotning jihozi: Mashg‘ulotlik, tarqatmalar, rasmlar, multimedya, ...

Mashg‘ulotning borishi: A) Tashkiliy qism.

Salomlashish, davomatni aniqlash, o‘quvchilarini Mashg‘ulotga tayyorlash.

“Kun yangiligi” rukni asosida suhbat

B) O‘tilganlarni mustahkamlash.

Uy vazifasi so‘rab baholanadi. O‘qilgan badiiy asardan parcha tahlili qilinadi.

S) Yangi mavzu.

Foydalanish uchun so‘z va so‘z birikmali: mening oilam, oilamiz an’analri, ahil-mehribon, ota-onaga hurmat, oila ahilligi, faxrlanmoq, eng sevimli insonim, g‘amxo‘r va mehrbon.

2-topshiriq. Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

Oilam – tayanchim va faxrim

Men O‘zbekistonda tug‘ilganman. O‘zbekistonda turli millat vakillari bir oila bo‘lib yashaydilar.

Aytishilaricha, qaldirg‘ochlar xosiyatli xonadonlarga in qurar ekan. Osoyishta, fayzli xonadonni qushlar ham sevadi, unga talpinadi, deydi xalqimiz. Oilaning fayzli va farovon bo‘lishi esa, albatta, unda yashaydigan kishi lar, oila a’zolariga bog‘liq. Ular o‘zaro hamjihat bo‘lib yashasalar, bir maqsadni ko‘zlasalar, bu xonadon obod bo‘ladi.

O‘zbekistonda oilaga e’tibor katta. O‘zbek oilalarida ota-on, bobobuvilarni e’zozlash, farzandlarga g‘amxo‘rlik qilish asosiy burch hisoblanadi. Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir. Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiy-

ligini ta’minlaydi. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas sanalgan. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va xotirjamlikka erishiladi. Mahalla, yurt mustahkam bo‘lsagina, davlatda osoyishtalik, rivojlanish bo‘ladi. Eng qimmatli ahloqiy fazilatlar: halollik, rostgo‘ylik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik avvalo oilada shakllanadi.

Lug‘at qaldirg‘och – ласточка

xosiyatli – приносящий счастье

osoysishta – спокойный

muqaddas – священный

mustahkam – прочный, крепкий

xotirjamlik – душевный покой

mehr-muruvvati – доброта и великодушие



g‘amxo‘rlik – заботливость

3-topshiriq. «Oilam – tayanchim va faxrim» matni asosida savollarga javob bering.

– Qaldirg‘ochlar qanday xonadonlarga in qurishadi?

– _____.

– Oilaning fayzli va farovon bo‘lishi kimlarga bog‘liq?

– _____.

– Sharqda qadim-qadimdan oilaga qanday munosabatda bo‘lishgan?

– _____.

– Qachon mahallada tinchlik va xotirjamlikka erishiladi?

– _____.

– Qanday fazilatlar oilada shakllanadi?

– _____.

Bilib oling!

So‘zlar asos va qo‘shimchalardan tuziladi. So‘zning asosiy ma’nosini ifodalab, mustaqil qo‘llana oladigan qismi asos deb ataladi. Mustaqil qo‘llana olmaydigan, asosga qo‘shilib, unga yangi yoki qo‘shimcha ma’no yuklaydigan, so‘zlarni bog‘lashga xizmat qiladigan qismi esa qo‘shimcha deb ataladi.

Masalan: tilshunos – (til – asos, -shunos qo‘shimcha); guldon – (gul – asos, -don – qo‘shimcha)

Asos	Qo‘shimchalar
So‘zning asosiy ma’nosini ifodalab, mustaqil qo‘llana oladigan qismi: bino, soz, bil, ol, tin	Mustaqil qo‘llana olmaydigan, asosga qo‘shilib, unga yangi yoki qo‘shimcha ma’no yuklaydigan va so‘zlarni bog‘lashga xizmat qiladigan qismi: -chi, -lik, -a, -gi

1-mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajratib yozing.

Namuna: mehribon – mehr + i + bon

1. Farzand o‘z ota-onasiga **mehribon** bo‘lishi kerak. 2. Dilshodning dadasi **dehqonchilik** bilan shug‘ullanadi. 3. Maktabimizda o‘tkaziladigan hasharga **yordamchilar** keldi. 4. Bobomning bog‘ida pishgan olmalar **suvli** va shirin. 5. Bugun sinfdoshlarim bilan birga imtihonga tayyorlandik. 6. Umida **gullarni** parvarishlaydi.

4-topshiriq. Chap ustunda berilgan maqollarning davomini o‘ng ustundan topib o‘qing va mazmunini izohlang.

Oilada hamjihatlik bo‘lmasa, Sharaf tojini izlama, Ota dong‘i bilan o‘g‘il o‘tadi, Aqli kishisi bo‘limgan uy	quyoshsiz osmonga o‘xshaydi. ona dong‘i bilan – qiz ona rizoligini izla uni baxt tark etadi
---	--

D)Mustahkamlash.

2-mashq. Berilgan so‘zlarga mos qo‘shimchalar qo‘shib yozing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bil - bilim - bilimdon - bilimli. Bilimli o‘uchilar maktabimizning faxri sanaladi. Bil ..., etik ..., g‘am ..., ish ..., gul ..., osh ..., sinf ..., do‘st...

Foydalinish uchun qo‘shimchalar: -im, -don, -do‘z, -xo‘r, -chan, -li, -paz, -dosh, -ona.

F) Baholash

Uyga vazifa.

2-topshiriqdagi matndan yasama so‘zlarni toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

*veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.
Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu
nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki
nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob
beriladi*

*O‘zbek tili fanidan 10-11-sinf bo‘sh
o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga 34 soatli to‘garakni
to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.*



Narxi: 20 ming so‘m

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiiev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.